

HUQUQ TA'LIMI MUAMMOLARI

*Andijon davlat pedagogika instituti ijtimoiy va
amaliy fanlar fakulteti magistratura bo'limi
"Huquq ta'limi" 1-bosich talabasi
Odilova Sevaraxon Ibrohimjon qizi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida huquq ta'limi sohasida mavjud bo'lgan dolzarb muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilinadi. Xususan, huquqiy savodxonlik darajasining pastligi, ta'lim tizimida amaliyotga yo'naltirilgan yondashuvning yetishmasligi, zamonaviy metod va texnologiyalarning yetarlicha qo'llanilmayotgani kabi masalalarga e'tibor qaratiladi. Shuningdek, huquqshunos kadrlar tayyorlash sifati, o'quv dasturlarining takomillashtirilishi hamda xalqaro tajribaning tatbiq etilishi bo'yicha takliflar ilgari suriladi. Maqola huquq ta'limi islohotlariga oid ilmiy-amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Huquq ta'limi, huquqiy savodxonlik, ta'lim sifati, amaliy yondashuv, oliy huquqiy ta'lim, huquqshunos kadrlar, o'quv dasturlari, pedagogik metodlar, ta'lim tizimi islohotlari, huquqiy madaniyat, Kasbiy kompetensiya.

Абстрактный

В статье анализируются современные проблемы в сфере юридического образования в Республике Узбекистан и пути их преодоления. В частности, будет уделено внимание таким проблемам, как низкий уровень правовой грамотности, отсутствие практико-ориентированного подхода в системе образования, недостаточное использование современных методов и технологий. Также будут выдвинуты предложения по повышению качества юридической подготовки, совершенствованию учебных программ и внедрению международного опыта. Статья содержит научные и практические рекомендации по реформированию юридического образования.

Ключевые слова: Юридическое образование, правовая грамотность, качество образования, практический подход, высшее юридическое образование, юридические кадры, учебные программы, педагогические методы, реформы системы образования, правовая культура, профессиональная компетентность.

Abstract

This article analyzes the current problems in the field of legal education in the Republic of Uzbekistan and ways to overcome them. In particular, attention is paid to such issues as the low level of legal literacy, the lack of a practice-oriented approach in the education system, and the insufficient use of modern methods and technologies. Also, proposals are put forward on the quality of legal training, the improvement of

curricula, and the implementation of international experience. The article contains scientific and practical recommendations on legal education reforms.

Keywords: Legal education, legal literacy, quality of education, practical approach, higher legal education, legal cadres, curricula, pedagogical methods, reforms of the education system, legal culture, Professional competence.

KIRISH

Bugungi globallashuv va axborotlashuv davrida jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning yuksalishi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, fuqarolarning o'z huquq va erkinliklarini bilishi, ulardan to'g'ri foydalanishi bevosita huquqiy ta'lim tizimining samaradorligiga bog'liqdir. O'zbekistonda so'nggi yillarda ushbu yo'nalishda muhim islohotlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, hali hanuzgacha huquq ta'limida bir qator ko'zga ko'ringn muammoli vaziyatlar bor. Jumladan, o'quv dasturlarining amaliyotdan uzoqligi, ta'lim metodlarining eskirganligi, huquqshunos kadrlar tayyorlashda sifat mezonlarining yetarlicha shakllanmaganligi shular jumlasidan desak also mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu maqolada huquq ta'limining mavjud muammolari tahlil qilinib, ularni bartaraf etish yo'llari va takliflar ilgari suriladi.¹

Zamonaviy demokratik jamiyatning asosiy ustunlaridan biri bu – aholining huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyati hisoblanadi. Har bir fuqaroning huquq va majburiyatlarini to'g'ri anglay olishi, huquqiy normalarga hurmat bilan yondashishi huquqiy davlat barpo etishning ajralmas bir qismidir. Aynan shu sababli, huquqiy ta'lim tizimining sifati va samaradorligi O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar doirasida alohida e'tiborga loyiq sanaladi. Biroq bu sohada qator muammolar mavjud bo'lib, ularni aniqlash va bartaraf etish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Huquqiy ta'limdagi asosiy muammolarga keladigan bo'lsak,

Amaliyotdan uzoqlik

Huquqiy ta'limning asosiy kamchiliklaridan biri bu – nazariy bilimlarning ustuvorligi va amaliy ko'nikmalarning yetarli darajada shakllantirilmasligidir. Talabalar ko'pincha real hayotdagi huquqiy vaziyatlarga tayyor emas, bu esa ularning mehnat bozorida raqobatbardoshligini pasaytiradi.

O'quv dasturlarining yangilanishga muhtojligi

Ko'plab huquqiy fanlar bo'yicha darsliklar va o'quv qo'llanmalar eskirgan, ayrim hollarda amaldagi qonunchilikka mos kelmaydi. Bu esa ta'lim sifatini tushiradi va zamonaviy huquqiy muhitga mos kadrlar tayyorlashga to'sqinlik qiladi.

1. ¹ Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Yangi O'zbekiston strategiyasi.- Toshkent, 2021. -458 b.

Pedagogik metodikalar va texnologiyalar kamligi

Axborot texnologiyalari davrida ham ko‘plab ta’lim muassasalarida interaktiv va innovatsion uslublarni yetarli darajada qo‘llanilmayapti. Talabalarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, qonunchilikni qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi metodikalar hali keng tatbiq etilmagan.

Kadrlar malakasi

Ba’zi ta’lim muassasalarida dars berayotgan pedagoglarning o‘zlari ham zamonaviy yondashuvlardan uzoq, doimiy kasbiy rivojlanish tizimi yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan. Bu esa ta’lim jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Huquqiy ta’limni takomillashtirish yo‘llari va amaliyot bilan integratsiyani kuchaytirish

Ta’lim jarayonida sud, prokuratura, advokatura kabi huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikni kuchaytirish juda muhim. Talabalar uchun amaliy mashg‘ulotlar, sud jarayonlarida ishtirok etish shu jumladan, yuridik klinikalar orqali tajriba orttirish imkoniyatlarini kengaytirish bugungi kunning zamonaviy talabidir.

Zamonaviy darsliklar va metodikalar ishlab chiqish

Qonunchilikdagi o‘zgarishlarga mos, interaktiv yondashuv asosida tayyorlangan yangi avlod darsliklari va o‘quv qo‘llanmalarini yaratish muhim. Bu darsliklar nafaqat bilim berishi, balki talabaning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishi kerak.

Pedagoglarni qayta tayyorlash va malaka oshirish

Huquqiy fanlarni o‘qitayotgan ustozlar uchun zamonaviy metodika va texnologiyalar asosida malaka oshirish kurslarini yo‘lga qo‘yish lozim. Bu nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki pedagoglarning kasbiy rivojlanishini ta’minlab beradi.

Xalqaro tajribani o‘rganish

Yuqori rivojlangan davlatlar tajribasini o‘rganish va mahalliy sharoitga moslashtirish orqali ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlar joriy etilishi mumkin. Xalqaro huquq, inson huquqlari, yuridik etika kabi yo‘nalishlar bo‘yicha yangi kurslar kiritish ham ijobiy samara beradi. Shu jumladan huquq fanidan sertifikatlarining joriy etilishi va shu fanga rag‘batni kuchaytirish kerak.²

Yuqoridagi tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, huquqiy ta’lim – bu shunchaki huquqshunos mutaxassislar tayyorlash emas, balki jamiyatning huquqiy ongi va madaniyatini shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim strategik yo‘nalishdir. O‘z navbatida, bu sohada mavjud bo‘lgan muammolar – ta’limning amaliyotdan uzilishi, o‘quv dasturlarining zamonaviy talablar bilan uyg‘un emasligi, innovatsion metodikalarning sustligi va pedagogik kadrlar malakasining yetarli emasligi – umumiy

2. ²<http://www.uzedu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi sayti

ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Huquqiy ta'limni takomillashtirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim:

- ta'lim va amaliyot o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish;
- zamonaviy, interaktiv o'quv qo'llanmalarni ishlab chiqish va joriy etish;
- pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimini yo'lga qo'yish;
- xalqaro tajribani chuqur o'rganish va milliy ta'lim tizimiga moslashtirish.

Shuningdek, fuqarolarning har bir qatlamiga moslashtirilgan huquqiy savodxonlikni oshirish dasturlari, maktabdan boshlab bosqichma-bosqich huquqiy tarbiya berish tizimini kuchaytirish ham zarur. Zero, huquqiy bilimli fuqaro – qonun ustuvorligiga amal qiluvchi jamiyatning tayanchidir. Shunday ekan, huquqiy ta'limni isloh qilish, zamon talablariga mos ravishda rivojlantirish bugunning dolzarb vazifasidir va bu boradagi har bir tashabbus kelajak avlodning huquqiy ongini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. © 2020 “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati»
2. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Yangi O'zbekiston strategiyasi.- Toshkent, 2021. -458 b.
3. <http://www.uzedu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi sayt
4. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. –t.: Ma'naviyat, 2008
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – t. : O'zbekiston , 2023